



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



### GENDER YENDASHUV ASOSIDA BULAJAK PEDAGOGLARDA MADANIY MULOQOTNI SHAKLLANTIRISH

**Baltayeva Anadjan Tadjibaevna**

*Toshkent Amaliy fanlar universiteti*

*E mail: [anadjanbaltaeva74@gmail.com](mailto:anadjanbaltaeva74@gmail.com)*

**Annotatsiya:** *Gender yendashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayonini tashkil etish bugungi kunda pedagogik zaruriyat darajasiga ko'tarilmoqda. Chunki bo'lajak o'qituvchining madaniy dunyoqarashini shakllantirish davlatning oliy pedagogik ta'lim oldiga qo'yayotgan muhim talablaridan biri hisoblanadi.*

**Kalit so'zlar:** *gender yondashuv, bo'lajak o'qituvchi, madaniy dunyoqarash, talaba, ko'nikma.*

Pedagogika ensiklopediyasida "Gender" – (lot. genio - jins) pedagogik jarayon subyektlarining o'z xatti-harakatlari va ularning asoslarini tushunib yetishi, anglashiga qaratilgan nazariy faoliyati; bilishning alohida bir shakli deb ta'rif berilgan. . Refleksiya o'quv jarayonida bo'lajak o'qituvchilarning o'z-o'zini madaniy jihatdan anglashiga ko'maklashadi. Bunday madaniy jihatdan o'z-o'zini anglash aniq pedagogik vaziyatlarda vujudga keladi. Gender yendashuv asosida maxsus tashkil etilgan pedagogik vaziyatlar bo'lajak o'qituvchilarning madaniy rivojlanish imkoniyatlari, shart-sharoitlari, buning uchun zarur bo'lgan madaniy muhitni mujassamlashtiradi. Gender yendashuv bo'lajak o'qituvchining kasbiy rivojlanishi va o'zo'zini madaniy jihatdan namoyon qilishiga imkoniyat yaratadi. Pedagogik refleksiya yordamida bo'lajak o'qituvchilar o'quvchilar va hamkasblarai ularni madaniy jihatdan qay darajada anglashini his qilishlariga sharoit va imkoniyat yaratadi. Gender yendashuv madaniy rivojlanish jarayonida bo'lajak o'qituvchilar ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan tarixiy-madaniy meros bilan munosabatga kirishadilar.

Gender yendashuv asosida bo'lajak o'qituvchilar o'quvchilar va ta'lim jarayonining boshqa sub'ektlariga qanday munosabatda bo'lishlari lozimligini tushunib yetishga muvaffaq bo'ladilar. Bo'lajak o'qituvchi o'z pedagogik faoliyatini qaysi madaniy me'yorlar asosida amalga oshirishi lozimligini tasavvur qiladi. Buning uchun zarur bo'lgan bilimlar va madaniy me'yorlarni o'zlashtiradi. Bo'lajak o'qituvchilarning refleksiv layoqatlarini rivojlantirish asosida ularni kasbiy, madaniy munosabatga tayyorlash uchun dastlab talabalarning madaniy dunyoqarashini rivojlantirish talab qilinmoqda. Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayoniga gender yondashuvni tadbiiq etish masalasi bilan pedagoglar, psixologlar va madaniyatshunoslar shug'ullanmoqda. Tadqiqot muammosining nazariy tahlili shuni qo'rsatmoqdaki revleksiv yondashuv doirasida amalga oshirilgan tadqiqotlarning aksariyati o'quvchilarning refleksiv ko'nikmalarini shakllantirilishiga bag'ishlangan.





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayoniga gender yondashuvni tadbiiq etish masalasiga juda kam murojaat etilgan. Gender yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarda madaniy dunyoqarashni rivojlantirish masalasi deyarli tadqiq etilmagan. Ushbu muammoga ayrim maqolalar doirasida murojaat qilingan. Masalan R.G.Safarova, B.B.Ma'murov, X.Tojiboeva kabilarning ishlari bunga misol bo'la oladi. Bo'lajak o'qituvchilarda reflektiv ko'nikmalarni rivojlantirish asosida ularda madaniy dunyoqarashni rivojlantirish jarayoni o'ziga xos pedagogik va psixologik xususiyatlarga ega. Bo'lajak o'qituvchilarning reflektiv ko'nikmalari yordamida ajdodlarimiz merosi, global madaniy hodisalarni tahlil qilishlari uchun sharoit yaratiladi. Bshlajak o'qituvchilar refleksiya yordamida mustaqil qarorlar qabul qilish, madaniy jarayonlarni baholash imkoniyatiga ega bo'ladilar.shuning uchun ham oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak o'qituvchilarda reflektiv ko'nikmalarni shakllantirishga alohida yondashish va qo'shimcha imkoniyatlarni safarbar qilish talab etiladi. Bo'lajak o'qituvchi uchun zarur bo'lgan ko'nikmalardan biri o'z faoliyatini mustaqil tahlil qila olish ko'nikmasidir. Bunda talabalar o'zlarining dunyoqarashlari doirasida egallagan kasbiy ko'nikma va malakalarini mustaqil tahlil qiladilar. Buning uchun talabalarga ajdodlamiz merosi va innovasion usullar yordamida turlicha madaniy ta'sirdar ko'rsatiladi. O'quv jarayonida taqdim etiladigan didaktik vositalar talabalarda reflektiv ko'nikmalarni shakllantirish bilan bir qatorda madaniy dunyoqarashni rivojlantirishga ham xizmat qilishi nazarda tutiladi. Gender yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarda madaniy dunyoqarashni shakllantirishda tarixiy meros bilan bir qatorda kasbiy pedagogik rivolanish muammolariga bag'ishlangan manbalar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Talabalar mustaqil bilim olish vaziyatlarida madaniy hodisalar, jarayonlarni refleksiyalash asosida o'zlarining kasbiy-madaniy dunyoqarashlarini rivojlantirishga muvaffaq bo'ladilar. Buning uchun madaniyatga oid bilimlarni o'zlashtirish va ulardan konstruktiv tarzda foydalanish tajribasiga ega bo'lishlari kerak. Bu esa o'z navbatida bo'lajak o'qituvchilarning madaniy dunyoqarashlarini rivojlantirish va kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishga ko'maklashadi. Zamonaviy pedagogikada kasbiy-madaniy, reflektiv ko'nikmalar shaxsni har tomonlama rivojlantirish vositasi sifatida talqin etiladi. Shaxs o'z-o'zini madaniy rivojlantirish natijasida o'quv-biluv harakatlarini takomillashtiradi. Bunday ko'nikmalarni bo'lajak o'qituvchilar puxta o'zlashtirishlari va kasbiy rivojlanish bilan bog'liq muammolarni yechishda ulardan samarali foydalana olshlari nazarda tutiladi. Taniqli mutaxassis A.S.Obuxov gender yondashuv haqida o'z qarashlarini bayon qilib, quyidagi fikrlarni ilgari surgan: "Refleksiya shaxsning rivojlanish maqsadi bilan bohliq holda o'z hatti-harakatlarini angalsh imkonini beradi". U o'z fikrini davom ettirib - refleksiya mutaxassisning kasbiy-shaxsiy rivojlanish usuli ekanligini ta'kidlaydi.

T.F.Usheva esa reflektiv ko'nikmalarni o'ziga xos tarzda tavsiflab, reflektiv ko'nikmalar ta'lim oluvchilarning reflektiv harakatlarini amalga oshirishlari natijasida nomoyon bo'lib, u shaxsning muayyan faoliyatni amalga oshirish usuli hisoblanadi deb ko'rsatgan. V.V.Davidovning ta'biricha - reflektiv ko'nikmalar o'quv harakatlarining ichki tayanch asosi hisoblanadi. Mazkur ko'nimalar shaxsning ehtiyojlarini, mayllarini o'zaro





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



muvofiqlashtiradi. Refleksiv ko'nikmalar o'quv-biluv harakatlari mahsuli sifatida namoyon bo'ladi. Refleksiv faoliyat bo'lajak o'qituvchining mustaqil bilim olishi, izlanishi natijasida rivojlanadi va madaniy dunyoqarashning shakllanishiga asos bo'ladi. madaniyatshunoslik, pedagogika, psixologiya, falsafa fanlarida refleksiya tushunchasining talqini ushbu sohalar nuqtai nazaridan yondashilgan holda bayon qilingan. Gender pedagogikada quyidagi yo'nalishlarda talqin etilgan: Refleksiya muayyan xodisalar, shart-sharoitlar, jarayonlarni tahliliy jihatdan o'rganishni ifodalaydi. Gender yondashuvning obyektlari shaxsning ta'lim-tarbiyasi, madaniykasbiy rivojlanishiga muayyan darajada ta'sir ko'rsatadi. Refleksiya jarayonlari bo'lajak mutaxassisning kasbiy-madaniy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, mavjud kamchiliklarni aniqlash va korreksiyalash imkonini beradi.

Gender yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarda madaniy dunyoqarashni rivojlantirish shart-sharoitlari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin. - oliy pedagogik ta'lim jarayonida tarixiy-innovasion yondashuvlar asosida bo'lajak o'qituvchilarda madaniy dunyoqarashni rivojlantirish shartsharoitlarini yaratish;- bo'lajak o'qituvchilarning bilish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida madaniy-tarixiy xarakterdagi didaktik vositalar va ommaviy axborot materiallaridan ifoydalangan holda talabalarga madaniyatshunoslikka oid bilimlarni taqdim etish;- bo'lajak o'qituvchilarning mustaqil bilim olish imkoniyatlarini kengaytirish orqali ularda madaniy dunyoqarashni rivojlantirishga xizmat qiladigan didaktik vositalarni saralao', tizimlashtirish va ulardan foydalanish metodlarini tavsiya etish;- gender yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarda madaniy dunyoqarashning shakllangalik darajasini aniqlash va formativ baholash metodidan foydalanish;- gender yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarda madaniy dunyoqarashni rivojlantirish mazmunini belgilashga qo'yiladigan talablar va uni tanlash prinsiplarni ishlab chiqish; - gender yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarda madaniy dunyoqarashni rivojlantirish jarayonining pedagogik-psixologik xususiyatlarini hisobga olish, talabalarining madaniy rivojlanishlari uchun qulay pedagogikpsixologik muhit yaratish; - bo'lajak o'qituvchilarning madaniy rivojlanish motivasiyasini hosil qilish, ularning madaniy dunyoqarashini shakllanishiga xizmat qiladigan topshiriqlarni ishlab chiqish va vaziyatlarni loyihalashtirishda gender yondashuvdan foydalanish.





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Давыдов, В.В. Теория развивающего обучения / В.В. Давыдов. — М.: ИНТОР, 1996. — 544 с.
2. Обухов, А.С. Рефлексия в проектной и исследовательской деятельности / А.С. Обухов // Исследовательская работа школьников. — 2005. - № 3.
3. Педагогика. Энциклопедия. III жилд. жамоа // Тошкент: «Ўзбекистан миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2017.- 400 б.
4. Сафарова Р.Г, Джураев Р.Х ва бошқ. Ўқувчи-ёшларни оммавий маданият хуружларидан ҳимоя қилишнинг назарий-методологик асослари. Моногрфия. – Т.: “Tafakkur qanoti” нашриёти -2017
5. Сафарова Р.Г. Ўқувчиларда маданий дунёқарашни шакллантириш параметрлари// FarDU. ILMIY XABARLAR. 2021 йил 2-сон. Б.120-123.

